

**Usmon Nosir: shaxs, shoir va tuzum**

## Annotatsiya

Ko'kda uchgan yulduz juda tez so'nishiga qaramasdan ortidan yorqin nur qoldiradi, bu nur esa insonlar xotirasiga, ongiga muhrlanib estetik zavq bag'ishlaydi. Usmon Nosir O'zbekiston osmonida xuddi o'sha yulduzlar kabi parvoz qildi va asarlarini barchamizning xotiramizga va yuraklarimizga muhrlab ketdi. Usmon Nosir shaxsiyati va she'riyati haqida ko'lab adiblar o'zlarining iliq fikrlarini bildirishgan. Juda ko'p tadqiqodlar olib borilgan. Ushbu maqolada ham shoir she'riyati va shaxsiyati tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: shoir, lirika, tuzum, adabiyot, badiiy did

A star flying in the sky leaves behind a bright light, even though it fades very quickly, and this light is imprinted in the memory and consciousness of people and gives aesthetic pleasure. Usman Nasir flew in the sky of Uzbekistan like those stars and left his works in the memory and hearts of all of us. Many writers expressed their warm opinions about Usman Nasir's personality and poetry. Many studies have been conducted. This article also analyzes the poet's poetry and personality.

Key words: poet, lyrics, system, literature, artistic taste

Kirish. Usmon Nosir deganda biz kimni tushunamiz. U shunday iste'dod egasiki, bamisoli tekkan joyini kuydirguvchi olovdir. Shoirning g'oyat qisqa umriga nazar solgan kishi juda uzoq o'ylarga tolishi shubhasizdir. Chunki bu chaqmoqdek umrda benihoya katta imkoniyatlar yonib ketganligini ko'rib va his qilib turasiz. Usmon Nosir ulug' va abadiy she'riyatning diydasidan oqib ulgurmagan shabnamdir, u hali qahqahaga aylanmay lablarimizda manguga qotib qolgan nim tabassumdir. Uning she'rlari ko'z kabi tirik, jonli, tutqich bermas hayot poralaridir.

---

\* *Urinov Odilbek Laziz o'g'li* - O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi o'qituvchisi

## Adabiyotlar tahlili va tadqiqotlar

Taniqli adabiyotsunos olim Ibrohim G'ofurovning "Qismatning ovozi" (Xurshid Davron sayti), O'zbekiston Qahramoni A. Oripov, Usmon Nosir haqida so'z, O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 1983, Mirvaliyev, R. Shokirova. O'zbek adiblari. - Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti 2016-yil, tadqiqotchi diyora Sanayevaning "Unutmas meni bog'im", shuningdek, shoir To'ra Mirzoning "Usmon Nosir" nomli badiasi, yosh va qalami o'tkir yozuvchi Jovlon Jovliyevning "Usmon Nosir" kitobida ham aynan shoir ijodi tadqiq etilgan.

Adabiyot butun bir millatning o'tmishini, bugununi va kelajagini ko'rstguvchi ko'zgu. "Adabiyot, san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi". Ana shu ulkan maydonda oz mudat bo'lsa-da o'zining bemisl hissasini qo'shgan shoirlarimizdan biri Usmon Nosirdir. Ko'kda uchgan yulduz juda tez so'nishiga qaramasdan ortidan yorqin nur qoldiradi, bu nur esa insonlar xotirasiga, ongiga muhrlanib estetik zavq bag'ishlaydi. Usmon Nosir O'zbekiston osmonida xuddi o'sha yulduzlar kabi parvoz qildi va asarlarini barchamizning xotiramizga va yuraklarimizga muhrlab ketdi. Usmon Nosir shaxsiyati va she'riyati haqida ko'lab adiblar o'zlarining iliq fikirlarini bildirishgan.

Biz Usmon Nosirni qadrlaymiz. Chunki u she'riyatning tabarruk, muqaddas dargohida anvoyi bir chaman, sira xazon bo'lmaydigan mo'jiza bog' yaratib ketdi" – Abdulla Oripov bildirgan ushbu ta'rifni dalillash maqsadida shoir tilidan aytilgan ushbu misrani keltiramiz:

Olovdek lovullab dil yonur,

Baxtliman janglarga yarasam. Shoir dastlabki jumlada dilining olovdek lovullab yonishini aytadi, bu Usmon Nosirning naqadar jo'shqin, bitmas-tuganmas shijoat sohibi ekanining yaqqol dalilidir.

*Bog'larga namozgar salqini tushdi,*

*Gullar nam bargini qayirdi asta.*

*Oftob ham suv ichar tog'lardan pastda,  
Loladek qip-qizil o't-shafaq o'chdi.*

Bu kabi satrlar Usmon Nosirning umuman she'riy qiyofasini, poetik ohangini belgilaydi, desak xato bo'lmas. Usmon Nosir nimalarni kuylab o'tdi? Uning ideali nima edi? Usmon Nosir qoldirgan adabiy meros bizga shu haqda guvohlik beradiki, u o'z safdoshlari qatorida yangi davrga ichdan tanqidiy qaradi. She'rlarida o'ksik bolalik yillarini yoki keskin kurashlarda qatnasha olmaganligini gapirishi shoirning ijtimoiy nuqtai nazari haqida to'la tasavvur beradi<sup>4</sup>. U yozadi:

*Kech tug'ildim, ammo qola olmadim  
Ikki bo'lak yo'lning  
Arosatida.  
Har bir so'zim sinfiy,  
Falsafiy fard,  
Sinfiy ong yotadi farosatimda.*

Ushbu satrlar, albatta, shoirning iqronomasidir. Ayni paytda shuni eslatib o'tmoq lozimki, hayotning teran qatlamlariga endigina kirib borayotgan Usmon Nosir hali uni batamom tadqiq etishga ulgurmagan edi. Har qanday katga va o'ziga xos iste'dod egalarida bo'lgani kabi uning ham betakror uslubi mavjud ediki, biz bu uslubda birmuncha romantik kayfiyat ustunligini kuzatamiz. Aslida ham, hayotdagi voqea va hodisalarni tadqiq etish o'sha voqea va hodisalarni she'rxonga takror aytib berishdangina iborat emas. Shunga ko'ra, hayot nechog'li rang-barang bo'lsa, shoirning undan orttirgan taassurotlari ham shu qadar rang-barangdir. Agar shoir bir she'rida tiriklikning cheksiz mashaqqatlaridan dili ozor topgan shikasta zot sifatida ko'rinsa, sira ham ajablanmaslik kerak. Odam bolasi to hanuz nomukammal ekan, to hanuz yorug' ideallar uchun kurash olib borar ekanmiz, insonlar fe'l-atvoridagi qusurlardan bir lahza ham ko'z yummasligimiz shart.

<sup>4</sup> <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/usmon-nosir-she'rlar-abdulla-oripov-usmon-nosir-haqida-soz>.

Nodira Rashidova quyidagi maqolasida yana shunday ma'lumotlarni keltiradi: “Nosir otaga: “Usmon sizga o‘gay o‘g‘il, undan ariza orqali voz keching. Siz inqilobga ko‘p xizmat qilgan odamsiz. Hukumat sizni qo‘llab-quvvatlaydi, ish beradi”, deb maslahat beruvchilar ko‘p bo‘di. Lekin Nosir ota o‘g‘lining nomini sotmadi, uning begunohligiga umrining oxirigacha ishondi. O‘g‘li bilan, uning halolligi bilan hamisha faxrlandi. Hatto o‘sha og‘ir yillarda ham Usmonning nomini himoya qildi”. Usmon Nosir ana shunday ota qo‘lida tarbiyalanadi. O‘rta maktabda va Samarqandagi O‘zbekiston dorulfununida o‘qib yurgan yillaridayoq u shoir Usmon Nosir bo‘lib tanildi. 30-yillarda uning she‘rlarini kitobxonlar intiqlik bilan kutishadigan bo‘lishdi. 20 yoshida unga zamondoshlari “tabiatan shoir”, “tug‘ma shoir” deb ta‘rif berishardi.<sup>5</sup>

Usmon Nosir she'riyati - asl tuyg'ular va porloq fikrlar ifodasi bo'lmish she'riyatdir. Shoir o'zi his qilmagan, diliga tug'yon solmagan narsalar haqida aslo qalam tebratmagan. Usmon Nosirning har bir she'ri - yurak faryodi. Shu bois she'rxonning yuragiga tez yetib boradi. Uning yuragini rom qiladi. «Yurak» she'rida samimiy inson qalbining haqiqiy tuyg'ulari mahorat bilan tasvir etilgan.

- Tilim charchar, ajab, gohi

Seni tarjima qilmoqdan.

Serzavq yurak tuygan barcha sezimlarni til bilan ifodalash mushkul. Ta'sirchan shoir yuragi shunchalar ko'p voqealarga daxldorki, unga tarjimon bo'lgan til, albatta, charchaydi. Qaynoq yurak bilan yashash - qiyin, biroq zavqli. Bunday yurak egasi orom bilmaydi. U hamisha hayajonda bo'ladi. Hamisha harakat qilishga majbur. She'rning xotima qismi ayni shu holatni ifoda etadi. She'rda muhim ma'no tashiydigan so'zlar birikmasi, hatto bitta so'z ham alohida qatorga tizilib, misraga aylantiriladi. Natijada, ularni alohida urg'u bilan o'qish zaruriyati paydo bo'ladi. Shu tariqa she'r o'zgacha ohang kasb etadi.

<sup>5</sup> Murodova M. Men – davrning kichik parchasi. ziyouz.uz elektron sayti // Fitna

Daryo-daryo to'kar yoshini

Kim bilmaydiki boisi na?

Bu yerda xam faromush qaraganda xech qanday xato yo'q. Hech narsa tushib qolmagan, xech narsa o'zgartirilmagan... faqat «-ki» bog'lovchi qo'shimchasi «bilmaydi» so'ziga qo'shib yuborilgan. Holbuki, bu yerda u alohida yozilishi va alohida talaffuz etilishi zarur. Aks holda misraning ma'nosi buziladi. «Bilmaydi» so'zidan so'ng bunda jiddiy pauza bor. Bunda «kim bilmaydi» degach, to'xtab, so'ng «ki boisi na?» deb o'qimasak, shoir kuzatgan maqsadni anglolmaymiz. She'r san'atkorligini toptagan bo'lamiz.<sup>6</sup>

Usmon Nosir yashagan davrda odamlarning harakatlarigina emas, tuyg'ulari ham qolipga solingandi. Shoirlardan ham ana shu qolipga moslashish talab etilardi. Chinakam shaxs qolipga tushmaydi. Haqiqiy shoir esa har qanday qolipni parchalashga intiladi. Chunki shoirlik qoliplarni sindirishdir. [Inson ruhining hurligini](#), inson tuyg'ulari erkini kuylagan Usmon Nosir, o'zi bilmagan holda, sotsialistik tuzum belgilagan qoliplarni shiddat bilan buza boshladi. Shuning uchun u mavjud tuzumning dushmaniga aylandi. Garchi shoir bu tuzumga ataylabdan qarshi kurashmagan bo'lsa-da, bu tuzumni ko'pchilikka farovonlik keltiradi deb hisoblagan esa-da, she'rlari bilan, bo'ysunmas tabiati bilan jamiyatning, tuzumning «dushmani»ga aylandi. 1937- yilning 14- iyulida Usmon Nosirni qamoqqa olib ketishdi. Shu tariqa o'zbek she'riyati osmonidagi yorqin bir yulduz so'ndirildi. Usmon Nosirni avval Toshkent, so'ngra Magadan, Kemerovo turmalarida inson tasavvuriga sig'mas usullar bilan qiynashdi. Shunda ham shoir o'zligiga sodiq qoldi. Gunohsiz kishilarni badnom qilmadi, yovuz tuzumning qonxo'r tergovchilari talab etganidek, beayb odamlarga tuhmat qilmadi.

Afsuski, yovuzlikning shakl-shamoyili juda ham turfa, ko'rinishi g'oyat rang-barangdir. Masalan, birgina ichiqoralik, mash'um hasad qanchadan-qancha iste'dod egalarining boshiga kulfat solmagan. Biz bunday hollarda narsalarni o'z nomi bilan atab, kulfat uchun tarixdan burun mash'um kimsalarni dadil ayblashimiz zarur. Usmon

<sup>6</sup> <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/ibrohim-gafurov-usmon-nosir.html>

Nosirning latif va samimiy, goh esa o'ychan, lekin hamisha maroqli she'riyatini ko'zdan ko'chirgan kishi har qalay teran o'ylarga cho'madi. Shoirga umr vafo qilib, agar u uzoqroq yashaganda bizga nechog'li qadrli asarlar yaratib berishi mumkin edi, degan fikr xayolimizdan kechadi. Uning bizga qoldirgan hozirgi mavjud merosidan ham ajib bir qoniqish hosil qilamiz. Usmon Nosir she'rlarini o'qiganimizda ba'zi shoirlarning mudroq va g'aliz ijodiyoti tarix uchun nechog'li nozarur ekanligini payqab qolamiz.

Bu ham Usmon Nosir ijodining avlodlar uchun ibratli jihatlaridan biridir. Biz bugungi kunda Usmon Nosirning tarjimonlik faoliyatini ham zo'r mamnuniyat bilan tilga olamiz. Ulug' rus adabiyotining ikkita eng ko'rkam dostoni — “Demon”, “Bog'chasaroy fantani” uning tarjimasida jaranglab turibdi. Biz Usmon Nosirni qadrlaymiz. Chunki u she'riyatning tabarruk, muqaddas dargohida anvoyi bir chamanzor, sira xazon bo'lmaydigan mo»jaz bog' yaratib ketdi.<sup>7</sup>

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. *“O'zbekiston adabiyoti va san'ati” gazetasi, 1983 yil, 18 mart.*(Xurshid Davron sayti)
2. Murodova M. Men – davrning kichik parchasi. ziyouz.uz elektron sayti // Fitna
3. <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/ibrohim-gafurov-usmon-nosir.html>

<sup>7</sup> *“O'zbekiston adabiyoti va san'ati” gazetasi, 1983 yil, 18 mart. Xurshid Davron sayti.*